

## Oriental Journal of Education



### SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH FOLK SONGS

*Mekhroj Kudratov*

*Lecturer at the Department of Pedagogy*

*International Innovative University*

*Email: [mqudratov1995@gmail.com](mailto:mqudratov1995@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekiston*

---

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** folk songs, national values, music education class, aesthetic education, musical heritage, student upbringing, traditional music, pedagogical approaches, interactive methods.

**Received:** 16.05.26

**Accepted:** 17.05.26

**Published:** 18.05.26

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of students' moral and spiritual education through folk songs. Particular attention is given to the educational potential of folk music, its positive influence on the younger generation, and its significant role in shaping national values, traditions, and cultural identity. Furthermore, the study explores effective methods of integrating folk songs into music education classes, including innovative pedagogical approaches and interactive teaching techniques aimed at developing students' aesthetic taste, spiritual awareness, and creative abilities. The article also offers scientific conclusions and practical recommendations focused on preserving musical heritage and fostering national consciousness among students.

---

### O'QUVCHILARNI XALQ QO'SHIQLARI ORQALI MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYALASH

*Mexroj Qudratov*

*Xalqaro innovatsion universiteti*

*"Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi*

*Email: [mqudratov1995@gmail.com](mailto:mqudratov1995@gmail.com)*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** xalq qoʻshiqlari, milliy qadriyatlar, musiqa madaniyati darsi, estetik tarbiya, musiqiy meros, oʻquvchi tarbiyasi, anʼanaviy musiqa, pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oʻquvchilarni xalq qoʻshiqlari vositasida maʼnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Xususan, xalq qoʻshiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlari, ularning yosh avlod ongiga ijobiy taʼsiri hamda milliy qadriyatlar, urf-odat va anʼanalarni shakllantirishdagi oʻrni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, musiqa madaniyati darslarida xalq qoʻshiqlaridan samarali foydalanish yoʻllari, innovatsion pedagogik usullar va interfaol metodlar asosida oʻquvchilarning estetik didi, maʼnaviy dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari koʻrib chiqilgan. Maqolada xalq musiqa merosining uzluksizligini taʼminlash, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash hamda ularning musiqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

---

## ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

*Мехрож Кудратов*

*Преподаватель кафедры «Педагогика»*

*Международный инновационный университет*

*Email: [mqudratov1995@gmail.com](mailto:mqudratov1995@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** народные песни, национальные ценности, урок музыкальной культуры, эстетическое воспитание, музыкальное наследие, воспитание учащихся, традиционная музыка, педагогические подходы, интерактивные методы.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические основы духовно-нравственного воспитания учащихся посредством народных песен. Особое внимание уделено воспитательному потенциалу народных песен, их влиянию на формирование личности подрастающего поколения, а также их роли в развитии национальных ценностей, традиций и культурного наследия. Кроме того, анализируются эффективные способы использования народных песен на уроках музыкальной культуры, современные педагогические подходы и интерактивные методы, направленные на развитие эстетического вкуса, духовного

мировоззрения и творческих способностей учащихся. В статье также представлены научные выводы и практические рекомендации, направленные на сохранение музыкального наследия и воспитание молодежи в духе национальной культуры.

---

**Kirish.** O‘zbek xalqi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, milliy-ma’naviyatimizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xalq qo‘shiqlari xalq va millatning ma’naviy musiqiy boyligi hisoblanadi. Har bir xalq asarining tarixi, uning an’anaviy ijrosi, xalq urf-odatlar va boshqa qadriyatlar bilan bog‘lanishini va qaysi janrga mansubligini bilib ijro etish hamda undan axloqiy xulosalar chiqarib olish madaniyatini egallash o‘quvchilarning xalq qo‘shiqlari orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganligini ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

**Muhokama va natijalar.** O‘zbek xalq qo‘shiqlari mazmuni, funksional yo‘nalishi hamda ijro uslublariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi. Ushbu tasnif ularning nafaqat badiiy-estetik xususiyatlarini, balki tarbiyaviy imkoniyatlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Har bir tur o‘ziga xos g‘oyaviy mazmun va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Marosim qo‘shiqlari xalq hayotidagi muhim ijtimoiy va madaniy voqealar bilan uzviy bog‘liq holda vujudga kelgan. Ular to‘y marosimlari, beshik to‘ylari, mavsumiy bayramlar va boshqa an’anaviy tadbirlarda ijro etilib, milliy urf-odatlarning davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur qo‘shiqlar orqali yosh avlodga xalqning qadimiy an‘analari, ijtimoiy qadriyatlar va estetik qarashlari singdiriladi.

Mehnat qo‘shiqlari esa inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, asosan mehnat jarayonida kuylanadi. Ular mehnatni yengillashtirish, jamoaviylikni mustahkamlash hamda ruhiy ko‘tarinkilikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, bunday qo‘shiqlar yoshlarni mehnatsevarlik, sabr-toqat va hamkorlik ruhida tarbiyalashda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Lirik qo‘shiqlar insonning ichki kechinmalari, hissiy holatlari va ruhiy olamini aks ettiradi. Ularda muhabbat, sog‘inch, orzu-intilish kabi nozik tuyg‘ular ifodalanib, o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish va emotsional tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday qo‘shiqlar yoshlarning ruhiy dunyosini boyitib, ularning san’atni idrok etish qobiliyatini oshiradi.

Tarixiy qo‘shiqlar esa xalqning o‘tmish hayoti, tarixiy voqealari va qahramonlik an‘analarini o‘zida mujassam etadi. Ushbu qo‘shiqlar orqali o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash hamda vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi. Ular yosh avlodni o‘z tarixiga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa madaniyati darslarida xalq qo‘shiqlaridan maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning ma‘naviy-axloqiy kamolotiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda turli metodik yondashuvlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Avvalo, qo‘shiqlarni tinglash va tahlil qilish usuli muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda o‘quvchilar qo‘shiqning mazmuni, musiqiy tuzilishi, ohang xususiyatlari hamda unda ifodalangan g‘oyani tahlil qilish orqali musiqiy idrok va tafakkurni rivojlantiradilar. Bu esa ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, qo‘shiqlarni jamoaviy tarzda ijro etish usuli ham samarali hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar birgalikda kuylash orqali jamoada ishlash ko‘nikmasini, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni o‘rganadilar. Mazkur metod ularning vokal qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda sahna madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Qo‘shiqlar mazmunini izohlash usuli esa o‘quvchilarning qo‘shiq mohiyatini chuqur anglashiga yordam beradi. O‘qituvchi tomonidan qo‘shiq matni, uning kelib chiqish tarixi hamda undagi tarbiyaviy g‘oyaning tushuntirilishi o‘quvchilarning bilim darajasini kengaytiradi va ularning madaniy tafakkurini boyitadi. Bundan tashqari, sahnalashtirish usuli orqali ayrim xalq qo‘shiqlarini dramatik ko‘rinishda namoyish etish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Umuman olganda, xalq qo‘shiqlaridan ta‘lim jarayonida samarali foydalanish o‘quvchilarda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantiradi, milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlaydi hamda estetik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xalq qo‘shiqlari yoshlarni milliy an‘analarga hurmat ruhida tarbiyalaydi va ularni ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli musiqqa madaniyati darslarida xalq qo‘shiqlaridan keng foydalanish, ularning mazmunini o‘quvchilarga chuqur tushuntirish va amaliy ijro orqali o‘rgatish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa kelajakda ma‘naviy etuk, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu asnda J.Sultonov tomonidan bastalangan “Raqqosasidan” asarini tahlil qilsak: Xalq

ohangi uslubida yaratilgan bu asar o‘zining jozibadorligi, yoqimligi bilan xalq ichida keng tarqalib, sevib aytiladigan qo‘shiqqa aylangan. Qo‘shiqni ijro etganda har jumlani bir nafasda aytmoq lozim.

Raqqosasidan

Мен ўр - ги - лай эл  
 рақ - ко - са - си - дан Мо - нанд ча - ман - нинг  
 гул - дас - та - си - дан  
 чир - маш - ди кўк - ка ав - жи - да ял - ла - (ей). Тан - бур ду - тор -  
 лар (е) ўй - ноқ - са - си - дан.  
 Теб - ран - ди ко - кил гул бар - ги хан - дон Жон ол - ғув - чи  
 ду - р ул чаш - му муж - гон. Ўй - най бу боғ - да  
 сиз шо - ду хан - дон - (ей) Гул о - чи - либ - ду - р

Xalq so‘zi. J.Sultonov musiqasi

Men o‘rgilay el raqqosasidan,  
 Monand chamanning guldastasidan.  
 CHirmashdi ko‘kka avjida yalla,

El xirmonimu yoyinki qizlar,  
 Dillarni maftun aylovchi ko‘zlar.  
 Ey, qaddi shamshod raqqosa qizlar,

Tanbur, dutorlar o'ynoqsasidan.

Sen birla ilhom, jon senga qurbon.

Tebrandi kokil gul bargi xandon,  
Jon olg'uchidur ul chashmu mujgon.  
Uynay bu bog'da siz shodu xandon,  
Gul ochilibdur bulbul g'azalxon.

San'atla olam bo'lg'ay farovon,  
San'atdadur ishq, san'atdadur jon.  
Ravnaq elining ijodi sensan,  
Ta'rifga loyiq dunyocho so'zlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy musiqa san'atining inson ruhiyati, kayfiyati hamda umumiy ma'naviy dunyosi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U o'z tadqiqotlarida musiqa nafaqat inson kayfiyatini o'zgartirishi, balki uning ichki dunyosi, ruhiy holati va ma'naviy qiyofasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini psixologik hamda estetik nuqtai nazardan izohlab beradi. Forobiyning musiqaning inson xulq-atvori va axloqiy kamolotiga ijobiy ta'siri haqidagi qarashlari musiqiy-estetik tafakkur tarixida muhim yangiliklardan biri hisoblanadi. Bu g'oyalarda musiqa san'atining tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati alohida e'tirof etilgan.

Xalq qo'shiqlari mazmunida mujassam bo'lgan fikrlar, ohanglarda ifodalangan da'vat, nasihat va hayotiy ko'rsatmalar xalqning ko'p asrlik tajribasi asosida shakllangan hikmatli xulosalarning mahsulidir. Ushbu qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib, vaqt o'tishi bilan sayqallanib, xalq donishmandligining o'ziga xos ifodasiga aylangan. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodida aytilgan har bir hikmatli so'z inson hayotiga yo'l ko'rsatuvchi saboq vazifasini bajaradi. Uni to'g'ri anglab yetmagan inson esa hayot jarayonida turli qiyinchilik va pand-nasihatlariga duch kelishi tabiiydir.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalarni anglash jarayoni insonning kundalik hayotida ro'y beradigan turli voqealar va psixologik holatlar bilan taqqoslash orqali asta-sekin shakllanadi. Natijada shaxsda ma'lum odatlar, ijobiy ko'nikmalar hamda mustahkam malakalar hosil bo'la boshlaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning shakllanish davrida musiqa ta'limi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar maktab hayotida, sinf jamoasida o'z o'rnini topishida va ijtimoiy muhitga moslashishida musiqa darslari muhim rol o'ynaydi. Mazmunli tashkil etilgan musiqa mashg'ulotlari, sinfdan tashqari musiqiy tadbirlar hamda maktabdagi umumiy musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, estetik didini shakllantirish va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u inson, ayniqsa o'quvchilarning ichki dunyosiga chuqur kirib borib, ularning hissiyotlarini uyg'ota oladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab tizimining eng nozik va murakkab qatlamlariga ham ta'sir

ko'rsatish qobiliyatiga ega. Ushbu qatlamlarda insonning katta aqliy va hissiy imkoniyatlari mujassam bo'lib, mazmunli va badiiy jihatdan yuksak musiqa aynan shu ruhiy va aqliy quvvat zahiralari faollashtiradi.

O'quvchi shaxsining shakllanishi hamda kamol topish jarayonida musiqa san'ati, ayniqsa xalq qo'shiqlarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki xalq qo'shiqlari xalqning qalb kechinmalari, quvonch va shodliklari, g'am-tashvishlari hamda orzu-umidlarining badiiy ifodasidir. Shuning uchun ham ular inson ruhiyatiga chuqur ta'sir etib, uning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Xalq qo'shiqlari o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan bebaho san'at merosidir. Shu bois milliy ohanglar, nola va qochirimlar, o'ziga xos kuy bezaklarini tinglagan inson ularga befarq bo'la olmaydi. Aksincha, bu ohanglar insonni o'ziga rom etib, uni qo'shiq aytishga, raqsga tushishga, ya'ni musiqa olamiga sho'ng'ishga undaydi. Bunday jarayon musiqa san'atining inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

Xalq qo'shiqlari faqatgina estetik zavq bag'ishlovchi san'at namunalari bo'lib qolmay, balki muhim tarbiyaviy vosita hamdir. Chunki insonning his-tuyg'ulari va hayajonlari zamirida ma'naviy-axloqiy qarashlar, hayotiy xulosalar va ijtimoiy tajribalar mujassam bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, xalq qo'shiqlari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy ham musiqaning inson ma'naviy hayotidagi o'rnini alohida ta'kidlagan. U musiqaning xilma-xilligi insonning ma'naviy ehtiyojlari ifodasi ekanligini qayd etib, estetik zavq va ruhiy huzur orqali inson ma'naviy barkamollikka erishishini ta'kidlaydi. Jomiy fikricha: "Ruhga lazzat biror narsani tushunib, anglab olish orqali keladi. Agar biror narsa ruh tomonidan tez idrok etilib, insonni hayratga solsa va chuqur o'ylashga majbur etsa, u eng katta lazzat manbai hisoblanadi". Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — yosh avlod qalbiga ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy merosni singdirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni doimiy ravishda rivojlantirib borish hamda Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqlari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim vositalardan biridir. Ular orqali yosh avlod milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'rganadi hamda san'atga muhabbat ruhida tarbiyalanadi. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'quvchilarning Vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbati kabi serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy manbalar o'quvchida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pirmatov Sh. Yakkaxon qo'shiqchilik: O'zbekiston davlat San'at instituti – T.: Musiqa, 2011. 268 b.
2. Matyoqubov O. O'zbek maqomoti asoslari – Toshkent: Fan, 2004.
3. Akbarov A. Musiqa nazariyasi asoslari – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
4. Nazarov Q. Musiqa madaniyati o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Yusupov R. Musiqa pedagogikasi – Toshkent: O'qituvchi, 2008.